



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozov Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин қизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahyo'yevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	<i>O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI</i> <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	<i>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI</i> <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	<i>O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH</i> <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	<i>LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdaturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Ikramova Nasiba Axmadovna

ZARMED universiteti Muhandislik-iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi
nasibaikramova1507@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm marketingini rivojlantirish va turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Turizm xizmatlarini samarali targ'ib qilish, raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish, milliy turizm brendini shakllantirish hamda xalqaro turizm bozorlarida mamlakatning pozitsiyasini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, turizm infratuzilmasini takomillashtirish va innovatsion marketing strategiyalarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, marketing, raqobat, reklama, tarixiy shaxslar, tarixiy va me'moriy obidalar, mehnat resurslari, ishchi kuchi, mehnat salohiyati, ishsizlik, mehnatni tashkil etish funksiyalari, motivatsiya, samaradorlik, rentabellik.

Abstract: This article examines the issues of developing tourism marketing and enhancing the competitiveness of the tourism sector in Uzbekistan. The study highlights key priorities for the effective promotion of tourism services, the application of digital marketing technologies, the development of a national tourism brand, and the strengthening of the country's position in international tourism markets. Furthermore, recommendations are provided for improving tourism infrastructure and implementing innovative marketing strategies to ensure sustainable growth in the tourism industry.

Keywords: tourism, marketing, competition, advertising, historical figures, historical and architectural monuments, labor resources, workforce, labor potential, unemployment, labor organization functions, motivation, efficiency, profitability.

Абстрактный: В данной статье рассматриваются вопросы развития туристического маркетинга и повышения конкурентоспособности туристической отрасли Узбекистана. Освещены приоритетные направления эффективного продвижения туристических услуг, использования цифровых маркетинговых технологий, формирования национального туристического бренда и укрепления позиций страны на международном туристическом рынке. Также разработаны предложения по совершенствованию туристической инфраструктуры и внедрению инновационных маркетинговых стратегий.

Ключевые слова: туризм, маркетинг, конкуренция, реклама, исторические личности, памятники истории и архитектуры, трудовые ресурсы, рабочая сила, трудовой потенциал, безработица, функции организации труда, мотивация, эффективность, рентабельность.

Kirish (Введение/Introduction).

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi so'nggi yillarda davlatning iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bozorda erkin raqobat sharoitida turizmni rivojlantirish, mamlakatning iqtisodiy o'qishiga muhim hissa qo'shishi mumkin. Biroq, turizmni rivojlantirishda faqat tabiiy resurslar, madaniy meros yoki tarixiy obidalar yetarli emas, balki samarali turizm marketingi ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning turizm marketingi va raqobatbardoshligini oshirish sohasidagi amaliyotlari global tendentsiyalar va yangi texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi kerak. Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm marketingini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va uni yanada rivojlantirish uchun zarur strategiyalar tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Turizm marketingi va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari turizm iqtisodiyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda mamlakatlarning xalqaro turizm bozorida mavqei nafaqat mavjud turistik resurslarga, balki marketing strategiyalarining samaradorligiga ham bog'liq. Shu sababli turizm marketingi orqali turistik mahsulotlarni targ'ib qilish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va turistlar oqimini ko'paytirish masalalari keng o'rganilmoqda.

Turizm marketingining nazariy asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda marketing kompleksining (4P va 7P) turizm sohasida qo'llanilishi turistlar ehtiyojlarini qondirish va xizmatlar sifatini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etilgan [1]. Turizm xizmatlarini samarali boshqarish va iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi [2].

Xalqaro tadqiqotlarda turizm destinatsiyalarining raqobatbardoshligi infratuzilma sifati, xizmat ko'rsatish darajasi, transport qulayligi va marketing faoliyati bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlangan [3]. Jahon Turizm Tashkiloti ekspertlari mamlakatlarning turizm salohiyatini oshirishda raqamli marketing va milliy turizm brendini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadilar [4].

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi turizm marketingiga yangi imkoniyatlar yaratdi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va sun'iy intellektga asoslangan marketing vositalari turistlarning qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [5]. OECD tadqiqotlarida raqamli transformatsiya turizm xizmatlari samaradorligini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish omili sifatida baholangan [6].

O'zbekiston turizm sohasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi va turistik salohiyatidan samarali foydalanish zarurligi ta'kidlangan [7]. Shuningdek, turizm xizmatlari sifatini oshirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va marketing strategiyalarini takomillashtirish turistlar oqimini ko'paytirishning muhim omillari sifatida qayd etilgan [8].

So'nggi tadqiqotlarda barqaror turizm tamoyillarini joriy etish, ekologik va madaniy resurslarni asrash bilan birga turizm marketingini rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashi ta'kidlangan [9].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda turizm marketingi va uning raqobatbardoshlikka ta'sirini o'rganishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini turizm marketingi, destinatsiyalar raqobatbardoshligi va xizmatlar marketingiga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston turizm sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari, xalqaro turizm tashkilotlari hisobotlari va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, raqamli marketing texnologiyalari, turizm brendingi va xizmatlar sifatining turizm raqobatbardoshligiga ta'siri nazariy jihatdan baholandi.

Tahlil natijalari asosida O'zbekistonda turizm marketingini rivojlantirish va turizm xizmatlarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Turizm marketingi – bu turistik mahsulot yoki xizmatni rivojlantirish, targ'ib qilish va sotishni tashkil etish uchun strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni anglatadi. O'zbekistonda turizm marketingi, birinchi navbatda, mamlakatning turistik salohiyatini jahon miqyosida tanitishga qaratilgan. Marketingning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Turistik mahsulotni ishlab chiqish - mamlakatning turistik salohiyatini hisobga olgan holda yangi turistik yo'nalishlar va xizmatlar yaratish.

Targ'ibot va reklama - turizmni targ'ib qilishda zamonaviy reklama va kommunikatsiya vositalarini ishlatish, shu jumladan, internet-marketing va ijtimoiy tarmoqlar.

Bozorni tahlil qilish - turizm bozoridagi talabni o'rganish, mijozlarning xohish-istaklarini aniqlash va bozor segmentatsiyasini amalga oshirish.

O'zbekistonda turizm marketingi sohasida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. 2016-yildan boshlab, mamlakatda turizmni rivojlantirishga qaratilgan strategik islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, turizm marketingining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida xalqaro turistik bozorni jalb qilishga katta e'tibor berilgan. Biroq, mavjud bozor sharoitlari va resurslarga qaramay, turizm marketingining samarali ishlashida ba'zi muammolar mavjud:

Brendni yaratish va uning xalqaro miqyosda targ'iboti – O'zbekistonning turistik imiji hali ham global miqyosda yetarli darajada tanilmagan. Mamlakatning turistik salohiyatini to'liq yoritishda va jahon bozorida raqobatlashishda ba'zi cheklolvar mavjud.

Transport infratuzilmasi va xizmatlar - bozorning rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadigan transport va xizmatlar infratuzilmasining yetishmasligi. Yangi turistik yo'nalishlar, turistik xizmatlarni taklif etish va transport tarmog'ini kengaytirish zarurati mavjud.

Raqobatchilar bilan raqobatlashish – O'zbekistonning qo'shni davlatlari, masalan, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlar ham turizmni rivojlantirishda faoliyat olib bormoqda. Bularning barchasi O'zbekiston uchun raqobatni kuchaytiradi.

O'zbekistonda turizm marketingini samarali ravishda rivojlantirish uchun bir qator strategiyalarni amalga oshirish zarur. Quyida ba'zi asosiy yo'nalishlar keltirilgan:

Brend yaratish va global miqyosda targ'ib qilish – O'zbekistonning turistik brendini yaratish va uni xalqaro miqyosda tanitish maqsadida mamlakatning o'ziga xos madaniy merosi, tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar va tabiiy manzaralarini marketing vositalari orqali dunyo bo'ylab tanitish zarur. Masalan, "Great Silk Road" (Buyuk Ipak Yo'li) brendini ilgari surish orqali O'zbekistonning turistik salohiyatini jahon miqyosida yoritish mumkin.

Internet marketing va ijtimoiy tarmoqlar - bugungi kunda internet marketingi va ijtimoiy tarmoqlar orqali turizmni targ'ib qilish samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonning turizm salohiyatini targ'ib qilishda ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, bloglar va boshqa onlayn platformalardan foydalanish orqali butun dunyo bo'ylab turistlarni jalb qilish mumkin. Shu bilan birga, digital marketing va SEO (Search Engine Optimization) texnologiyalaridan foydalanish bozorni rivojlantirishda juda muhimdir.

Mijozlarni tahlil qilish va segmentatsiya – O'zbekistonda turizm marketingining samarali ishlashi uchun bozorni to'liq tahlil qilish va mijozlarni segmentatsiya qilish zarur. Maqsadli auditoriyani aniqlash ularning ehtiyojlarini tushunish va turistik xizmatlarni shunga muvofiq ishlab chiqish kerak. Masalan, o'zbek madaniyatiga qiziqadigan turistlar uchun madaniy meros va tarixiy obidalar, tabiatga qiziqadiganlar uchun ekoturizm yo'nalishlari yaratish mumkin.

Raqobatbardosh narx siyosati va xizmatlar – O'zbekiston turizm sohasidagi raqobatni oshirish uchun raqobatbardosh narx siyosatini amalga oshirishi kerak. Narxlarning maqbul va arzon bo'lishi turistlar uchun muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, turizm xizmatlarining sifatini oshirish, mehmonxona, transport va oziq-ovqat sohaslarida raqobatbardosh bo'lish uchun innovatsion yechimlarni qo'llash kerak.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish - turizmning rivojlanishi uchun transport infratuzilmasi muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda yangi xalqaro aeroportlarni qurish, temir yo'l va avtomobil transporti tarmog'ini rivojlantirish, shuningdek, turistik yo'nalishlarni kengaytirish orqali mamlakatga tashrif buyuradigan turistlar sonini oshirish mumkin. Havo yo'llarini ochish, aeroportlarni modernizatsiya qilish va yangi transport yo'nalishlarini joriy etish zarur.

Raqobatbardosh turizm marketingi strategiyalarini amalga oshirish ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Birinchidan, turizmni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va eksport daromadlarini oshiradi. Ikkinchidan, turizm sohasining rivojlanishi ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yordam beradi, chunki turizm ta'siridan turli ijtimoiy qatlamlar ham foyda olishadi. Nihoyat, raqobatbardosh turizm marketingi mamlakatning xalqaro imijini yaxshilaydi va milliy madaniyatni saqlab qolishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

O'zbekistonda turizm marketingini rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan strategiyalar, mamlakatning turizm sohasini global miqyosda mustahkamlashga yordam beradi. Brend yaratish, digital marketingni qo'llash, bozorni segmentatsiya qilish, raqobatbardosh narx siyosatini ishlab chiqish va transport infratuzilmasini yaxshilash orqali O'zbekiston turizm sohasida muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Bunda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, xalqaro tajribalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda turizm marketingi va raqobatbardoshlikni oshirish borasida katta salohiyat mavjud. Mamlakatning boy madaniy merosi, tabiiy go'zalliklari va tarixiy yodgorliklari turizm sohasining rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Biroq, turizmning samarali rivojlanishi uchun marketing strategiyalarini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash zarur. Bu sohada amalga oshirilgan islohotlar va yangi tashabbuslar turizmni jahon bozorida raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Turizm marketingini rivojlantirish: O'zbekistonning turistik brendini dunyo bo'ylab tanitish uchun zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish zarur. Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn reklama kompaniyalari orqali turistlar uchun diqqatga sazovor joylar va xizmatlar haqida keng ma'lumot tarqatish kerak.

Turizm raqobatbardoshligini oshirish: Raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, masalan, turistlarga noyob tajribalar taklif qilish, innovatsion xizmatlar va mahsulotlar yaratish zarur. Bundan tashqari, xizmatlar sifatini doimiy ravishda monitoring qilish va yaxshilash kerak.

Sifatli xizmatlarni taqdim etish: Turistik xizmatlarni yuqori sifatga olib chiqish uchun mehnat resurslarini malakali o'qitish va xodimlarni professional rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, xizmatlar ko'rsatishda xalqaro standartlarga amal qilish va mehmonlar bilan aloqada samimiylikni ta'minlash muhimdir.

Infratuzilmani rivojlantirish: Turizmni rivojlantirish uchun transport, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa infratuzilmaviy obyektlarni modernizatsiya qilish kerak. Bu turizm tajribasini yaxshilash va turistlarning qulayligi uchun muhimdir.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi: Turizm sohasining samarali rivojlanishi uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va yangi loyihalarni amalga oshirish zarur.

Turistik ta'limni rivojlantirish: Turizm sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus o'quv dasturlari va treninglar tashkil etish, turizm menejmenti va marketingi bo'yicha kurslar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References)

1. Kotler P., Bowen J.T., Baloglu S. Marketing for Hospitality and Tourism. 8th Edition. Pearson Education, 2024.
2. Morrison A.M. Marketing and Managing Tourism Destinations. 3rd Edition. Routledge, 2023.

3. Dwyer L., Forsyth P., Dwyer W. *Tourism Economics and Policy*. 2nd Edition. Channel View Publications, 2023.
4. United Nations World Tourism Organization. *World Tourism Barometer*. Madrid, 2024.
5. Buhalis D. *eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management*. Updated Edition. Routledge, 2024.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development. *OECD Tourism Trends and Policies 2024*. Paris, 2024.
7. Rasulov A., Axmedov B. O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
8. Ergashev A., Nurmatov Sh. Turizm marketingi va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish masalalari. Toshkent, 2024.
9. World Economic Forum. *Travel and Tourism Development Index Report*. Geneva, 2024.